

*Dildora Yusufaliyeva*

*NamDU magistranti*

O'zlashma so'zlarning bevosita shu til, jamiyat bag'rida vujudga kelmaganligi so'zning faoliyat davriga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ko'pincha terminlik xususiyatiga ega bo'lgan bir ma'noli so'zlar davr o'tishi bilan eskirib qolishi mumkin. Bu, albatta, ijtimoiy, siyosiy o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq. Masalan, *kolxoz*, *partkom*, *obkom* singari so'zlar sho'ro voqeligini aks ettirib turadi.

Mustaqillik davrida o'zbek tili lug'at tarkibida quyidagi lisoniy o'zgarishlar yuz berdi:

1. Xorijiy tillardan bevosita yoki bilvosita so'zlar olindi.

2. Tilning ichki imkoniyati hamda til egalari ehtiyojidan kelib chiqib, o'zlashma tarkibli yangi so'zlar yasaldi.

3. So'z yoki ibora semantik strukturasi yangi ma'nolar bilan boyidi<sup>1</sup>.

Davlat va jamiyat hayotidagi o'zgarishlar natijasida so'zlarning yangi ma'nolar kasb etishi, so'zlar semantik ko'laminig kengayishi haqida to'xtalar ekan, atoqli tilshunos olim N.Mahmudov bu jarayonda jamiyatdagi yangi sohalar, ayniqsa, axborot texnologiyalari sohasining hissasi katta ekanligini yozadi<sup>2</sup>.

Hozirgi kunda siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalarida kirib kelayotgan aksariyat so'zlar terminlar hisoblanib, faqat terminologik sathdagina qo'llanadi. O'zlashma so'zlarning bir qismi umumqo'llanishga o'tishga ham ulgurmoqda: *snikers*, *orbit*, *rollton* kabi.

O'zlashma so'zlarning qabul qilinishida ularning asli ma'nosi emas, boshqa til jamiyatlarida qabul qilingan ma'nosi yetakchi sema sifatida qabul qilinayotgani ko'zga tashlanadi. Ya'ni ularning o'zlashuvida bevosita tillar emas, jamiyatlarning ijtimoiy-ruhiy aloqasi birinchi o'ringa chiqmoqda. So'zning

<sup>1</sup>Одилов Ё. Мустақиллик даври лексикасида маъно тараққиёти // ЎТА, 2016, №2. – Б.41.

<sup>2</sup> Маҳмудов Н. Ўзбек тили луғат бойлиги ривожда фаоллашган жараёнлар // ЎТА, 2015, №5. – Б.13.

o‘zlashuv jarayoni, buning lug‘aviy ma’noga ta’siri bevosita til bilan, shuningdek, jamiyat bilan bog‘liq bo‘lmoqda. Bunda millatlarning dunyoqarashi, urf-odatlarini so‘zlarning ayrim semalarining, ya’ni so‘zning to‘liq o‘zlashishida o‘ziga xos filtr vazifasini bajaradi. Demak, so‘z o‘zlashuvini tekshirishda so‘zlarning asl – etimologik ma’nosiga e’tibor berish, milliy ruhiyat masalasini hisobga olish zarur.

O‘zlashma so‘zlarni etimologik tahlil etishdan asosiy maqsad shuki, ayrim hollarda zamon va makonning o‘zgarishi, til egalarining madaniy holati, hayot tarzi so‘zni aslyatdan uzoqlashtirib yuboradi va lisoniy tahlillarda so‘zning tarkibi, kelib chiqishi, lug‘aviy ma’no taraqqiyotini aniqlashda muammo tug‘iladi. Shu o‘rinda lug‘atlardagi etimologik ma’lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Izohli lug‘atlarda so‘z haqida etimologik ma’lumotlarning berib borilishi izlanuvchi uchun bir qancha qulayliklar tug‘diradi: boshqa manbalarni ko‘rib chiqishga hojat qolmaydi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri izohli lug‘atning o‘zi bilan so‘zlarni semantik tahlil qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bundan tashqari, o‘zbek tiliga qiziqqan har bir inson lug‘atdan faqat ilmiy emas, tarixiy ma’lumot ham oladi.

Masalan, budka so‘zini oladigan bo‘lsak, *qadimgi rus tilida buda — qamish uycha, kulba degan ma’nolarni anglatgan ya’ni qorovullar uchun mo‘ljallangan kichik uycha; kichik qorovulxona. Shlagbaum birinchi kuniyoq yo‘l ustiga qurib bitkazildi, yoniga budka o‘rnatildi.* (I. Rahim, Chin muhabbat.) O‘zbek tiliga o‘zlashgandan so‘ng esa savdo-sotiq va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan uycha; do‘koncha ma’nosida ham qo‘llana boshladi. *Kimdir gaz budkadan suv olib kelib ichirdi, kimdir aptekadan dori olib chiqdi.* (Gazetadan.) *Rahim uning javobini kutmasdanoq morojenoye budkasi tomon chopib ketdi.* (S. Zunnunova, Ko‘k chiroqlar.) *Saidiy budkadan bu jurnalni olib, juda sevindi.* (A. Qahhor, Sarob.) *Ahmad telefon budkasiga yaqinlashdi va Irodaga telefon qildi.* (F. Musajonov, Himmat.) Shuningdek, suflyor budkasi ya’ni sahnada maxsus jihozlangan va suflyor o‘tiradigan chuqur joy ma’nosi ham anglashiladigan bo‘ldi. Bunday ruscha o‘zlashmalarga ko‘plab misollarni keltirib o‘tishimiz mumkin.

Zapas soʻzini oladigan boʻlsak, u rus tilidan zapasti — asramoq, avaylamoq deya tarjima qilinadi. Oʻzbek tilida qoʻllanganda esa kelajakda foydalanish yoki biror maqsad uchun jamgʻarib, ajratib qoʻyilgan narsa; zaxira tushunchasi sifatida foydalaniladi. *Yoqilgʻi zapasi, Vahobjonning juda jahli chiqib ketdi. Bu qanday gap! Zapas gʻildirak boʻlganda ham boshqa gap edi.* (S. Ahmad. Togʻ afsonasi.) *[Tursunboy] Oziq-ovqat zapaslarini koʻzdan kechirdi.* (Nazarmat, Joʻrlar baland sayraydi.) *Uchuvchilarda oʻn kunlik yonilgʻi zapasi bor edi.* (Gazetadan.) Biroq hozirgi oʻzbek tilidagi boshqa misollarga murojaat qiladigan boʻlsak, soʻzning qiyofasi birmuncha oʻzgarganiga guvoh boʻlamiz:

Ehtiyot shart, zarurat uchun tayyorlangan kimsa yoki narsa. *Mashinaning zapas qismlari. Zapas oʻyinchi. Miltiq ovozlari xandaqlarning ichkarisidagi zapas pistirmalargacha yetib bordi.* (I. Rahim, Chin muhabbat.)

Qazilma boyliklarning yer ostidagi, hali foydalanilmagan miqdori. *Neft zapaslari.*

Shuningdek, bu soʻzning soʻzlashuv tilida uchraydigan tikuvchilikda matoning kiyim choklari ostida ataylab, keyin qoʻshib yuborish uchun qoldiriladigan ortiqcha qismi maʼnosini keltirish ham mumkin. *Yengning zapasi.*

Hatto bu soʻz koʻchma maʼnoda kishining maʼnaviy-maʼrifiy sohalardagi boyligi, bilim darajasini ifodalash uchun ham ishlatiladi. *Soʻz zapasi. Bilim zapasi.*

Burloq soʻzini oladigan boʻlsak, rus tilida burlak — shovqin soluvchi, qichqiruvchi degan maʼnoni anglatadi. Lekin bu soʻz dengiz va daryo qirgʻoqlarida turib, kemalarni arqon yordamida sudrab yurgizuvchi yollanma dehqonlarga nisbatan qoʻllanadi. *Burloqlarning chehrasi sargʻish, Arqon sudrar, qalbi toʻla roz..* (Y. Mirzo, Oʻgʻil mehri.) *Balki jonlanardi qanchalar tilak, Balki burloqlarning ohi solar iz..* (Mirmuhsin.)

Zaryad ruscha zaryad < zaryadit — «otish quollarini toʻldirmoq, otishga tayyorlamoq» feʼlidan olingan boʻlib patron, snaryad va shu kabilardagi portlovchi modda miqdorini anglatadi. *Portlovchi zaryad, Zamonaviy strategik raketalar Yer kurrasining istalgan rayoniga yadro zaryadini yetkazishi mumkin.* (Gazetadan.)

Shuningdek fizikada elektrlangan jismdagi elektr miqdori tushunchasini ham anglatadi. *Musbat zaryad. Elektr zaryadi.*

Bugungi kunga kelib esa zaryad soʻzining maʼnosi kengayishi natijasida telefon quvvati maʼnosida ham qoʻllanib kelinmoqda.

Kartochka soʻzi ruscha soʻz boʻlib, qalin qogʻoz yoki kartondan toʻrt burchak qilib kesilgan, biror maʼlumot, xabar va sh. k. yozib qoʻyiladigan varaqchani anglatadi. *Kartochkaga misol olmoq. ..jang-mudofaa kartochkasini chizib-yozib, hammamizni tanishtirdi..* (T. Rustamov, Mangu jasorat.)

Tarixda bu soʻz oziq-ovqat yoki boshqa narsalar taqsimoti normalashtirilgan vaqtda shu narsalarni olish huquqini beradigan, kesib olinadigan taloni bor maxsus hujjat maʼnosida ham qoʻllangan *Qirq uchinchi yilda oziq-ovqat kartochkalari tarqatadigan idorada uning bir togʻasi ishlar edi.* (P. Qodirov, Uch ildiz.)

Shuningdek, kichkina karton qogʻozdan qilingan bilet shaklidagi guvohnoma, hujjat ham kartochka soʻzi orqali ifodalangan. *Vizit kartochkasi. Murodova.. partiya bileti va kandidatlik kartochkalarini topshirayotgan edi.* (I. Rahim, Ixlos.)

Bugungi kunga kelib globallashuv davrida kredit kartochkasi tushunchasi ham yuzaga keldi va isteʼmolda juda keng qoʻllanilmoqda. Kredit kartochkasi bank tomonidan oʻz omonatchilariga ularning shaxsiy hisobida saqlanayotgan mablagʻlaridan naqd pulsiz tovar sotib olishi yoki turli xizmatlardan foydalanishi uchun beriladigan hujjat-guvohnomadir. *Kredit kartochkalari chiqaradigan har bir bank, har bir kompaniya ularni olish va ulardan foydalanish qoidalarini oʻzlari belgilaydilar.* (Gazetadan.)

Samovar soʻzi ruscha oʻzlashma hisoblanib quyidagi holatda hosil qilingan: sam — oʻzi + varit — qaynatmoq. Choy qaynatishga moʻljallangan, suvxonali va oʻtxonali roʻzgʻor asbobi hisoblanadi. *Rux samovar. Samovar qaynatmoq. —Samovarda qaynagan choying qani, yor-yor. «Qoʻshiq».* *Juvon kattakon samovardan tunuka choynakka choy damlab keldi.* (A. Qahhor, Qoʻshchinor chiroqlari.) *Samovar jigʻillay boshladi, Avaz oʻtxonaga yana ikkita saksovul palyon tashlab, ichkari kirdi.* (S. Siyoyev, Yorugʻlik.)

Samovar soʻzi aynan choyxona maʼnosida ham qoʻllanadi. Bunda soʻzning asl – etimologik maʼnosidan metaforik usulda maʼno koʻchgan hisoblanadi.

*Mingboshi oʻng tomondagi ozodaroq samovarga chiqib.. chilim buyurdi.* (Choʻlpon, Kecha va kunduz.) *Yusuffon aka, bu hisob emas, hovliga boramiz, samovarda emas, bugun biznikida yotib qolasiz.* (K. Yashin, Hamza.)

Ramka «rama» soʻzining kichraygan shakli boʻlib hozirgi oʻzbek tilida bir qancha maʼnolarda keng qoʻllanib kelinmoqda.

Portret, rasm va sh.k. solinadigan, karton, metall va b. materialdan qilinadigan, asosan, toʻrt burchakli hoshiya. *Jimgina xona billur qandildan yogʻilayotgan nurga toʻlgan, devorlardagi kekxa artistlarning suratlari solingan ramkalar oynasi yaraqlab turardi.* (Oʻ. Hoshimov, Qalbingga quloq sol.) *Buguncha asliga oʻxshasa surat, Zarrin ramkalarga quvnab solgaysiz, Yuz rangda tovlanib kelganda shuhrat, Suvratin chizolmay shoshib qolgaysiz.* (A. Oripov, Yillar armoni.)

Motam, aza bilan bogʻliq vaziyatlarda esa matn yoki rasm atrofiga chizilgan toʻgʻri toʻrtburchakli qora hoshiya. *Marhumning suratini yoki nomini ramkada bermoq.*

Ramka soʻzi koʻchma maʼnoda ham qoʻllanib, ish-harakat, faoliyat, voqea-hodisa kabilar doirasi; chek, chegarasini ham anglatishi mumkin. *Ramkaga solmoq. Ramkadan chiqarmoq. —Furqat yubileyi oʻzining salmogʻi, mohiyat eʼtibori bilan adabiyot hodisalari ramkasidan tashqariga chiqib ketadi, keng maʼnodagi madaniyatimiz, maʼnaviy hayotimiz taraqqiyoti masalasiga aylanib ketadi.* «OʻTA».

Patnis soʻzi izohiga toʻxtaladigan boʻlsak, bu soʻz podnos < podnosit — olib kelmoq soʻzidan hosil qilingan va idish-tovoq yoki boshqa biror narsani tashish yoxud non, qand-qurs, mevacheva kabilarni solib, dasturxonga qoʻyish uchun moʻljallangan, keng, yassi, chetlari sal qayrilgan metall yoki plastmassa buyum hisoblanadi. Bunda soʻzning olib kelish yaʼni tashish semasi ustunlik qiladi. *Guldor patnis. — Xilma-xil, rang-barang qimmatbaho meva-chevalar bilan lim toʻla boʻlgan patnislar ketma-ket yetkazilib turiladi.* (Oybek, Tanlangan

asarlar.) *G'ulomjon kulib turib, oldidagi bo'sh qovun kosalarini patnisga soldi.* (M. Ismoiliy, Farg'ona t. o.)

Mehmonlarning oldiga qo'yish uchun tuzalgan shunday idish ma'nosida ham patnis so'zi qo'llanadi. *Uning [Mirzakarimboyning] kampiri patnis va bir choynak choy olib chiqdi.* (Oybek, Tanlangan asarlar.) *Xoldorxon dasturxonga patnis qo'yar ekan, engashib turib gapirdi.* (S. Zunnunova, Olov.)

Hatto bu so'z samovar so'zi bilan birgalikda samovar patnis birikmasini ham hosil qiladi. Samovar patnis birikmasi samovar ostiga qo'yiladigan patnis uchun qadimdan qo'llangan.

Duxovkada pishiriladigan narsa terib qo'yiladigan yassi tunuka uchun ham patnis so'zi qo'llangan. *Somsalarni patnisga terib, duxovkaga qo'ymoq. — Somsalarni qizitilgan tandirning jag'iga yopib yoki patnisi yog'langan duxovkaga qo'yib pishirasiz.* (K. Mahmudov, O'zbek tansiq taomlari.) Bugungi kunda esa bu so'z o'rnida list so'zi qo'llanib kelinmoqda.

Pamilchoy, famil yoki pamil so'zlari ham rus tili orqali o'zlashgan bo'lib, barchasi bir tushunchani ifoda etadi. Bu so'z familniy chay — oilaviy, xos choy deb tarjima qilinsa ham lekin o'zbek tilida aynan qora choyga nisbatan qo'llanadi. Bundan qora choy ruslar uchun xos ya'ni maxsus choy ma'nosida ekanligi anglashiladi. *Xalq tabobatida murchni pamilchoy bilan damlab, asal bilan ichirib, shamollagan kasallarni terlatishgan.* (K. Mahmudov, O'zbek tansiq taomlari.) *Chol betakallufgina chordana qurib o'tirib, xotini quyib uzatgan achchiq pamilchoyni puflab icha boshladi.* (H. G'ulom, Feruza.)

Koziryok so'zi rus tilidan tarjima qilinganda, koziryok — eshik tepasidagi soyabon degan ma'noni anglatadi. Lekin bu so'z esa shapka, kepka, furajka kabi bosh kiyimining peshonada oldinga chiqib turadigan qattiq yarim doira qismi, soyaboniga nisbatan qo'llanadi. *Koziryogi bir qarich keladigan chipor shapkasini boshidan olib, qoziqqa ildi.* (X. To'xtaboyev, Felyetondan so'ng.)

Polotno so'ziga to'xtaladigan bo'lsak, bu so'z polotno — qalin gazlama, kiyim, yoping'ich deganidir. Polotno arqog'i va o'rishi bir xil yo'g'onlik va qalinlikda bo'lgan, ipak, ip, kanop va shu kabilardan tayyorlangan pishiq va silliq gazlama va undan tikilgan kiyim hisoblanadi. *Ipakli polotno. Shtapel polotno, —*

*Ularda [dastgohlarda] rang-barang trikotaj polotnolar to‘qish imkoniyatiga egamiz. Gazetadan. -Duxoba, krepdeshin., polotno, shotlandkalar to‘qiyimiz, — deyishibdi chevarlar. (Sh. G‘ulomov, Yorqin yo‘llar.) Yupqa bluzkadan ham, krepdeshin, polotno ko‘ylaklardan ham unga to‘q ko‘k shol ko‘ylak ma‘qul bo‘ldi. «Saodat».*

Biroq bu so‘zning hozirgi o‘zbek tilidagi boshqa ma‘nolariga murojaat qiladigan bo‘lsak, so‘zning qiyofasi birmuncha o‘zgarganiga guvoh bo‘lamiz:

Polotno —odatda bo‘zsimon maxsus matoga chiziladigan katta yaxlit surat. *Mashhur rassom polotnolari. —Rassom Sharq ayollari obrazini yaratish ustidagi ishlarni davom ettirib, bir qator rang-barang polotnolar yaratdi. Gazetadan. Ayni kunlarda T. Jamoliddinov yangi polotnolar ustidagi izlanishlarini davom ettirmoqda. Gazetadan.*

Polotno so‘zi ko‘chma ma‘noda esa biror tarixiy voqea-hodisani keng va har tomonlama tasvirlagan badiiy asarga nisbatan qo‘llanadi. *T. Qayipbergenov adabiyotimizni «Qoraqalpoq dostoni» nomli yirik tarixiy polotno bilan boyitdi. «O‘TA».*

Shuningdek polotno so‘zining maxsus ma‘nosi ham mavjud. Temir yo‘l yoki shossening tosh, shag‘al va sh.k. dan ko‘tarib ishlangan asosi, ko‘tarmasi. *Olislarga cho‘zilib, ufqqa singib ketgan temir yo‘l polotnosi xayolimni olib ketdi. (S. Ahmad, Qadrdon dalalar.)*

Xo‘jayin so‘ziga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu xozyayin so‘zining o‘zgargan shakli bo‘lib, biror narsaga, masalan, yer-suv, mol-mulk, uy-joyga egalik qiluvchi shaxs; xususiy mulk egasi; mulkdor, boy insonga nisbatan qo‘llanadi. *[Mirzakarimboy:] Va‘da.. Nodon. Xo‘jayin degan xizmatkorlarini qiziqtirish uchun va‘da qilaveradi-da.. (Oybek, Tanlangan asarlar.)*

Biror narsaning to‘la huquqli egasiga nisbatan ham qo‘llanadi. *O‘zimiz xo‘jayin o‘z yerimizga, Erkinimiz, nomimiz, huquqimiz bir. (R. Bobojon.)*

Bu so‘z so‘zlashuv tilida ham bir necha ma‘nolarda unumli qo‘llanadi. So‘zlashuv tilida rahbar xodimga murojaat asnosida ham ushbu so‘z ishlatiladi. - *Xo‘jayin, mashina tayyor, — dedi shofyori. Gazetadan.*

So‘zlashuv tilida ayol kishining turmush o‘rtog‘iga murojaat shakli uchun ham ushbu so‘zdan foydalaniladi. *-Xo‘jayin, ovqat tayyor bo‘ldi. Keltiraymi? — Mastura oshxonadan turib so‘radi eridan. «Yoshlik».*

Stol so‘zi — kursi, o‘rindiqliq; taxt degan ma‘nolarni anglatadi. Dasturxon tuzash yoki ishlash uchun mo‘ljallangan, tirgak yoki oyoqchalarga o‘rnatilgan keng gorizontali taxtali baland kursi; mebel turiga nisbatan qo‘llanadi. *To‘garak stol. Tortmali stol. Yozuv stoli. Ovqat stoli. Operatsiya stoli. — [Abdulla Qahhor] Har kuni muayyan vaqtda yozuv stolida o‘tirishlari shart edi. (K. Qahhorova, Chorak asr hamnafas.) Lobarxon katta uydagi stolga dasturxon tuzab.. choynakdagi choyni qaytarib turardi. (Gazetadan.) Juvon bir kosa xushbo‘y va xushta‘m ovqatni stolga qo‘yib, sal nari ketdi. (S. Nurov, Maysalarni ayozi urmaydi.)*

Maxsus ishlar bilan shug‘ullanuvchi muassasa yoki muassasadagi bir bo‘limga nisbatan ham stol so‘zini qo‘llash mumkin. *Pasport stoli. Adres stoli.*

So‘zlashuv tilida amal, lavozimga nisbatan ham stol so‘zi qo‘llanadi. *[Zargarov:] Nimadan man tortaman!.. Olsa, stolini oladi-da, artelimga borib, yana raisligimni qilaveraman. (A. Qahhor, Og‘riqliq tishlar.)*

Ruchka so‘zi ham ruscha o‘zlashma bo‘lib, qo‘lcha; dasta, dastak, tirgak degan ma‘nolarni anglatadi. Lekin bu so‘z yog‘och yoki plastmassadan qilingan, bir uchiga pero yoki ichiga rang bilan to‘ldirilgan sterjen o‘rnatiladigan cho‘zinchoq tutqich — yozuv quroliga nisbatan qo‘llanadi. *Abdurazzoq ruchkani siyohga botirib, hafsala bilan, xuddi surat chizayotgandek qilib imzo chekdi. (S. Ahmad, Saylanma.) Shirinxon stolga surilib, siyohdonga tirog‘lik turgan ruchkalardan birini oldi. (S. Zunnunova, Olov.) Hozir yozuv-chizuvni sharikli ruchkasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. «Fan va turmush».*

So‘zlashuv tilida bu so‘z asl ma‘nosidan kelib chiqqan holda foydalaniladi. *Dasta. Eshik ruchkasi. Deraza ruchkasi.*

Kirza so‘zi ruschada kirza — muzlagan yer qatlami ma‘nosini anglatsada oyoq kiyimi, tasma va boshqa narsalar tayyorlash uchun teri o‘rnida ishlatiladigan pishiq, suv o‘tkazmaydigan (rezinalangan) sun‘iy material va undan tayyorlangan poyabzalga nisbatan qo‘llanishiga guvoh bo‘lamiz. *Sobir og‘ir kirza*



*etigi bilan uzun yo'lakka to'shalgan gilam-sholchani bosishga iymanib, devor yonrog'ini mo'ljallab, qimtinib borardi. (D. Nuriy, Osmon ustuni.) Qora las to'n kiygan.. oyog'ida kirza etik. (A. Ibodinov, «Latofat» do'konidagi qatl.)*

Ravshan Jomonovning ta'kidlashicha, “so'z o'zlashtirish lisoniy jarayon sifatida juda ko'p hodisalarni o'zida mujassamlashtiradi. Xorijiy so'zni qabul qilish hamda uning qabul qiluvchi tilda muqim “yashab” qolishiga ko'pgina omillar ta'sir ko'rsatadi. Shunday omillardan biri – o'zlashtirilayotgan so'zdagi semantik aniqlik, ya'ni ma'noni aniq va ravshan ifodalay olishdir. So'z o'zlashtirilishi natijasida so'zdagi ko'p ma'nolilik - polisemiya o'rniga bir ma'nolilik, semantik aniqlik yuzaga kelib, so'zning ma'no tuzilishida soddalashuv, ma'noni aniq ifodalash imkoniyati oshadi. Muhim jihati, qabul qilingan o'zlashma orqali ma'no nozikliklari paydo bo'ladi, bu esa tilning ifoda vositalari kengayishiga, lug'aviy imkoniyatlar bilan boyib borishiga xizmat qiladi. I.V.Arnoldning yozishicha, “O'zlashtirilayotgan so'z, odatda, tilda azaldan mavjud bo'lgan so'zlardan biriga semantik yaqinroq bo'lgan ma'nolardan biri (yoki bir nechasi) ni o'ziga qabul qiladi. Bunda ularning ma'no strukturasi qayta guruhlanish amalga oshadi, ya'ni qaysidir ikkinchi darajali ma'no asosiy ma'noga aylanadi yoki aksincha”. Ayni shu o'rinda so'z o'zlashtirishdagi juda nozik jihatlarni namoyon bo'ladi: o'zlashma so'z tildagi mavjud leksemalardan birining ma'nosini o'ziga qabul qiladi. Aniqroq aytganda, o'zlashtirilayotgan leksema qabul qiluvchi tildagi ma'lum bir so'z ma'nosini nihoyatda aniq ifodalay boshlaydi”<sup>3</sup>

Demak, o'zlashtirilayotgan so'zdagi semantik aniqlik, bir ma'nolilik ham o'sha so'zni qabul qilayotgan til leksikasidan muqim joy olishini ta'minlaydi.

Ruscha o'zlashmalarning semantik xususiyatlari haqida shuni aytish mumkinki, ularning ma'nolari o'zbek tili zaminida ma'lum va muayyan o'zgarishlarni boshidan kechirgan. O'zlashmalarda ma'no torayishi, ma'no kengayishi, qisman va to'la o'zgarishi, ma'no bo'yoqlarining yangi jilosi,

---

<sup>3</sup> Жомонов Р. Сўз ўзлаштиришдаги асосий лисоний омиллар. Ўзбек тили ва адабиёти. // 2014/№ 5 / 11-бет

ma'noning ko'chma xarakter olishi kabi bir qator o'zgarishlar yuz bergan. Ular o'zbek tili lug'at tarkibiga ta'sir qilibgina qolmay, yangi-yangi leksik birliklar yasalishida ham faol ishtirok etadi.

So'zlarning etimologik va hosila ma'nolarini tekshirish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, tildan tilga so'z o'zlashish jarayonida akseptor til egalari so'zni o'z dunyoqarashi, mafkurasiga moslab oladi. Yuqoridagi misollar nuqtai nazaridan qaralganda, bu moslashtirish til qonuniyatlaridan tashqarida yuz bermaydi, balki so'zlarning semalari o'rtasida etakchilik bo'yicha almashinish yuz beradi. Mazkur holat donor tilning o'zida yoki vositachi tilning semantik tizimi bilan bog'liq ravishda yuz beradi. Biz uchun asosiy holat tilimizda so'zlarning qaysi ma'noda qo'llanayotganligi, boshlang'ich ma'nosiga munosabati masalasi hisoblanadi.